



## O‘ZBEK IZOHLI LUG‘ATLARIDA QISHLOQ XO‘JALIGI TERMINLARI TAVSIFI

**Bo‘riyev Jamshid Xudoyberdiyevich**

Termiz davlat universiteti o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasasi o‘qituvchisi

Tel: +998 94 469 93 34

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o‘zbek tilining izohli lug‘atlarida qishloq xo‘jaligi sohasiga oid terminlarning aks etish xususiyatlari kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqotda terminlarning leksik tasnifi, etimologik kelib chiqishi hamda ularning lug‘atlarda berilish prinsiplari ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, qishloq xo‘jaligi terminlarining o‘zbek tiliga kirib kelish manbalari, ularning milliy va xalqaro terminologik tizim bilan bog‘liqligi ko‘rib chiqiladi. Terminologik birliklarning izohli lug‘atlardagi ifodalanish darajasi, ularning semantik aniqligi va tizimliliigi masalalari ham alohida e‘tibor markazida bo‘ladi. Tadqiqot davomida zamonaviy lingvistika, xususan, korpus lingvistikasi va terminologik tezauruslar asosida terminlarni tavsiflashning yangi yondashuvlari tahlil qilinadi. Natijada, qishloq xo‘jaligi terminlarini lug‘atlarda mukammal aks ettirish, ularning standartlashuvi va ilmiy muomaladagi o‘rnini mustahkamlash bo‘yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** qishloq xo‘jaligi terminlari, izohli lug‘at, leksik tasnif, etimologiya, terminologiya, leksikografiya, termin tizimi, tezaurus, korpus lingvistikasi, lingvokulturologiya.

### Kirish

Qishloq xo‘jaligi sohasiga oid terminlar har bir milliy tilning leksik va ilmiy boyligida alohida o‘rin tutadi. O‘zbek tilida bu terminlarning izohli lug‘atlarda aks etishi ularning semantik aniqligi, tizimliliigi va milliy madaniy kontekst bilan bog‘liqligini ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega. So‘nggi yillarda o‘zbek tilshunosligi sohasida qishloq xo‘jaligi terminlarini leksik tasniflash, ularning etimologik kelib chiqishini o‘rganish va lug‘atlarda berilish prinsiplari bo‘yicha bir qator tadqiqotlar olib borilgan [6; 2]. Shuningdek, terminlarning milliy va xalqaro terminologik tizimlar bilan bog‘liqligi, ularning lug‘atshunoslik amaliyotida qanday ifodalanishi masalalari ilmiy nuqtai nazardan keng tahlil qilinmoqda [4; 1]. Ushbu maqolada qishloq xo‘jaligi terminlarining izohli lug‘atlardagi aks etish xususiyatlari, ularning semantik va leksik tizimdagi o‘rni hamda zamonaviy korpus lingvistikasi va terminologik tezauruslar yordamida tavsiflashning yangi yondashuvlari ilmiy asosda yoritiladi. Tadqiqot



natijalarining amaliy qiymati qishloq xo'jaligi terminlarini standartlashtirish, ularning lug'atlardagi mukammal aksini ta'minlash va ilmiy muomaladagi o'rnini mustahkamlashga qaratilgan.

### Asosiy qism

Qishloq xo'jaligi terminlari o'zbek tilining ilmiy leksikasida murakkab leksik-semantik tizimni tashkil etadi va ular lug'atlarda mukammal aks etishi orqali terminologiyaning standartlashuvi va ilmiy muomaladagi barqarorligini ta'minlaydi. Qishloq xo'jaligi terminlarining leksik tasnifi ularni funktsional jihatdan ajratish, ma'no doirasi va soha ichidagi o'rinini aniqlash imkonini beradi. Masalan, urug'chilik, bog'dorchilik, chorvachilik va mexanizatsiya bilan bog'liq atamalar o'zining leksik-semantik xususiyatlariga ko'ra alohida guruhlarga bo'linadi va har bir guruh terminlari lug'atlarda aniq tasniflangan holda berilishi kerak [6, 48].

Etimologik nuqtai nazardan qaraganda, qishloq xo'jaligi terminlarining kelib chiqishi ularning milliy va xalqaro manbalar bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Qishloq xo'jaligi atamalarining ko'plab hollarda turkiy ildizga ega bo'lishi bilan bir qatorda, arab, fors va rus tillaridan kirib kelgan terminlarni ham o'z ichiga oladi. Bu esa o'zbek izohli lug'atlarida terminlarning etimologik ma'lumotlarini kiritish zaruratini yanada oshiradi, chunki foydalanuvchi nafaqat sohaning mazmunini, balki terminning tarixiy ildizini ham bilishi lozim [2, 249-250].

Izohli lug'atlarda qishloq xo'jaligi terminlarini berishda asosiy talab – ularning semantik aniqligi va tizimlilikni ta'minlashdir. Tadqiqot natijalariga ko'ra, lug'atlarda terminlar ko'pincha qisqa, lekin mazmunan aniq ta'rif bilan beriladi, ammo ularning kontekstual ishlatilishi va terminologik o'rni ba'zan yetarlicha ochib berilmaydi [3, 43]. Shu sababli, zamonaviy lug'atshunoslik amaliyotida terminlarni tavsiflashda korpus lingvistikasi va terminologik tezauruslardan foydalanish muhim vosita hisoblanadi. M.Ashirmatova [1, 108] ta'kidlaganidek, NLP (Natural Language Processing) texnologiyalari va terminologik tezauruslar yordamida qishloq xo'jaligi terminlarining kontekstual ko'rinishi, sinonimik munosabatlari va semantik qatlamlari yanada aniqroq tahlil qilinadi, bu esa lug'atlarda ularning mukammal aks etishini ta'minlaydi. Shuningdek, qishloq xo'jaligi terminlarining milliy va xalqaro terminologik tizim bilan integratsiyasi ham muhim masalalardan biridir. Qishloq xo'jaligi terminlarining ingliz va o'zbek tillari orasidagi lingvokulturologik o'xshashlik va farqlarini tahlil qilib, izohli lug'atlardagi tarjima va izohlarning milliy kontekst bilan uyg'unligini ta'minlash zarurligini qayd etiladi. Shu yo'sinda, lug'at foydalanuvchisi atamaning nafaqat leksik mazmunini, balki soha va madaniy kontekstini ham tushunishga ega bo'ladi [4, 1915].



Tahlil shuni ko'rsatadiki, o'zbek izohli lug'atlarida qishloq xo'jaligi terminlarini berishda uch asosiy prinsipga e'tibor qaratish lozim: leksik tasnifning aniqligi, etimologik ma'lumotlarning kiritilishi va semantik tizimning mukammalligi. Ushbu yondashuvlar terminologiyaning ilmiy standartlariga mos kelishini ta'minlab, qishloq xo'jaligi sohasidagi ilmiy va amaliy tadqiqotlar uchun ishonchli ma'lumot manbai yaratadi [6, 50; 1, 109].

Izohli lug'atlardagi qishloq xo'jaligi terminlarining ifodalanish darajasi ularning semantik aniqligi va ilmiy muomaladagi ishonchliligi bilan chambarchas bog'liq. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, lug'atlarda terminlar faqat so'z shaklida emas, balki ularning morfologik variantlari, sinonimlari va soha ichidagi kontekstual ishlatilishi bilan ham taqdim etilishi lozim [6, 49]. Masalan, "don ekish" atamasi lug'atlarda faqat harakatni bildiruvchi ibora sifatida berilishi yetarli emas, balki uning turli ekin turlari bilan bog'liqligi, mintaqaviy nomlari va ish faoliyatidagi qo'llanilishi ham ko'rsatilsa, terminning tizimlilik va amaliy qiymati oshadi.

Lug'atlarda terminlarning tizimlilik, ularning o'zaro leksik-semantik munosabatlari bilan belgilanadi. Sinonimiya, antonimiya va ko'p ma'nolilik kabi semantik hodisalar terminlarni tizimli tarzda tasniflashda muhim omil hisoblanadi [9, 51]. Masalan, "chorvachilik" va "moliya" sohalaridagi terminlar orasidagi semantik aloqalar, ularning ixtisoslashgan ma'nosi va amaliy ishlatilishi lug'atlarda to'liq aks ettirilishi zarur. Shu nuqtai nazardan, lug'at foydalanuvchisi terminning faqat leksik shakli bilan emas, balki uning soha ichidagi semantik o'rni bilan ham tanishadi.

Zamonaviy tadqiqotlar korpus lingvistikasi va terminologik tezauruslardan foydalangan holda terminlarni tavsiflashning yangi yondashuvlarini ilgari suradi. M.Ashirmatova ta'kidlashicha, NLP texnologiyalari yordamida terminlarning kontekstual ishlatilishi avtomatik tarzda tahlil qilinadi va bu lug'atlarda ularning mukammal tasvirini yaratishga imkon beradi. Shu bilan birga, bilingval terminologiya tizimlarini qo'llash, masalan, ingliz va o'zbek tillari orasidagi qishloq xo'jaligi atamalarini solishtirish, terminlarning milliy va xalqaro kontekst bilan uyg'unligini ta'minlaydi [4, 1916].

Bundan tashqari, lug'atlardagi terminlarning standartlashuvi ularning ilmiy muomaladagi barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Terminologik birliklarning aniq tasnifi, etimologik ma'lumotlar bilan boyitilishi va semantik tizimga mos kelishi qishloq xo'jaligi sohasidagi ilmiy va amaliy tadqiqotlarda terminlarning yagona va tushunarli ishlatilishini kafolatlaydi [2, 250]. Shu tarzda, izohli lug'atlar nafaqat leksik manba sifatida, balki ilmiy tadqiqotlar va soha mutaxassisleri uchun terminologik asos sifatida ham xizmat qiladi.



Shu nuqtai nazardan qaraganda, qishloq xo‘jaligi terminlarini lug‘atlarda tizimli va mukammal aks ettirish uchun bir nechta ilmiy jihatdan asoslangan tamoyillar mavjud: leksik tasnifning aniqligi, etimologik kelib chiqishning ko‘rsatilishi, semantik tizimning mukammal ifodalanishi va zamonaviy korpus lingvistikasi vositalaridan foydalanish. Bu yondashuvlar o‘zbek tilining izohli lug‘atlarida qishloq xo‘jaligi terminlarini mukammal tavsiflash, ularni amaliy va ilmiy muomalada barqaror ishlatish imkonini beradi [6, 50; 1, 109].

Qishloq xo‘jaligi terminlarining izohli lug‘atlardagi ifodalanishida ularning lingvokulturologik xususiyatlarini hisobga olish ham muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Chunki mazkur terminlar nafaqat ishlab chiqarish faoliyati bilan, balki xalqning tarixiy tajribasi, turmush tarzi va madaniy qadriyatlari bilan ham uzviy bog‘liqdir. G. Qodirova [4, 1917] ta’kidlaganidek, qishloq xo‘jaligi terminlari ko‘pincha milliy mentalitet va an’anaviy bilimlar tizimini aks ettiradi, shu bois ularni lug‘atlarda tavsiflashda lingvokulturologik markerlarni e’tibordan chetda qoldirmaslik zarur. Masalan, o‘zbek tilidagi ayrim dehqonchilikka oid atamalar bevosita mahalliy iqlim sharoiti, yerga ishlov berish usullari va tarixiy dehqonchilik an’analari bilan bog‘liq bo‘lib, ularning to‘liq mazmunini faqat lingvistik izoh orqali emas, balki madaniy kontekst bilan birgalikda ochib berish mumkin.

Shuningdek, qishloq xo‘jaligi terminlarining izohli lug‘atlarda berilishida ularning funksional-uslubiy xususiyatlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Terminlar ilmiy uslubga xos bo‘lsa-da, ular ko‘pincha ommaviy nutqda, ayniqsa, agrar soha vakillari nutqida keng qo‘llanadi. Shu sababli, lug‘atlarda terminlarning stilistik belgilari, qo‘llanish sohasi va nutqdagi faollik darajasi ham ko‘rsatib berilishi lozim [3, 44]. Bu esa foydalanuvchiga terminning qaysi kommunikativ vaziyatda qo‘llanishi mumkinligini aniqlashga yordam beradi.

Bundan tashqari, terminlarning strukturaviy xususiyatlari ham lug‘atshunoslikda alohida e’tibor talab etadi. Qishloq xo‘jaligi terminlari oddiy (bir komponentli), murakkab (birikmali) va qisqartma shakllarda uchraydi. Ularning har biri lug‘atlarda turlicha yondashuv asosida izohlanishi kerak. Masalan, murakkab terminlar tarkibiy jihatdan tahlil qilinib, ularning komponentlari alohida va umumiy ma’no hosil qilishdagi roli ochib berilishi lozim. Bu esa terminning semantik tuzilishini chuqurroq anglash imkonini beradi [5, 132].

Zamonaviy terminologik tadqiqotlarda qishloq xo‘jaligi terminlarini avtomatik aniqlash va ularni tizimlashtirish masalasi ham dolzarb hisoblanadi. Tadqiqotchilar tomonidan taklif etilgan bilingvual terminlarni ajratish usullari shuni ko‘rsatadiki, katta hajmdagi matnlar asosida terminlarni aniqlash va ularning ekvivalentlarini belgilash



mumkin[7]. Bu yondashuv o‘zbek tilidagi izohli lug‘atlarni boyitish, yangi terminlarni tezkor ravishda kiritish va ularni xalqaro terminologik tizim bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, izohli lug‘atlarda terminlarning berilishida konseptual yondashuvni qo‘llash ham muhim ahamiyatga ega. Termin faqat leksik birlik sifatida emas, balki ma’lum bir konseptning ifodasi sifatida qaralishi kerak. Bu yondashuv terminlarning o‘zaro bog‘liqligini, ularning umumiy tizimdagi o‘rnini va semantik tarmoqlarini aniqlash imkonini beradi [8, 85]. Natijada, lug‘at nafaqat alohida terminlar to‘plami, balki yaxlit bilimlar tizimini aks ettiruvchi manbaga aylanadi.

Mazkur yondashuvlar asosida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek izohli lug‘atlarida qishloq xo‘jaligi terminlarini mukammal tavsiflash uchun an’anaviy leksikografik usullar bilan bir qatorda zamonaviy lingvistik texnologiyalarni integratsiya qilish zarurati mavjud. Bu esa terminlarning nafaqat lingvistik, balki kognitiv, madaniy va funksional jihatlarini ham to‘liq yoritishga xizmat qiladi.

### **Xulosa**

O‘zbek izohli lug‘atlarida qishloq xo‘jaligi terminlarini tavsiflash masalasi tilshunoslikning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u terminlarning leksik tasnifi, etimologik kelib chiqishi hamda semantik aniqligini kompleks yondashuv asosida o‘rganishni talab etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, terminlarning lug‘atlarda mukammal aks etishi ularning tizimlilik, izohlarning aniqligi va lingvokulturologik xususiyatlarning hisobga olinishi bilan bevosita bog‘liqdir. Shuningdek, zamonaviy korpus lingvistikasi, terminologik tezauruslar va NLP texnologiyalaridan foydalanish qishloq xo‘jaligi terminlarini yanada mukammal tavsiflash, ularni standartlashtirish va ilmiy muomalada samarali qo‘llash imkonini beradi. Shu asosda izohli lug‘atlarni takomillashtirish, terminlarning yagona va izchil tizimini yaratish hamda ularning milliy va xalqaro terminologiya bilan uyg‘unligini ta’minlash dolzarb vazifa sifatida namoyon bo‘ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Ashirmatova M.J. Terminologik tezauruslar va NLPdagi roli [Elektron resurs] // Scientific Research Journal. – 2025. – №1. – B. 107-109. – URL: <https://journalss.org/index.php/trt/article/view/11525> .
2. Bo‘riyev J. Qishloq xo‘jaligi terminlarining etimologik tavsifi [Elektron resurs] // Renaissance ilmiy jurnali. – 2025. – №5. – B. 247–250. – URL: <https://ojs.renaissance.com.uz/index.php/nrc/article/view/3760> .



3. Islomova Sh. O‘zbek tilida qishloq xo‘jaligi terminlarining kirib kelishi [Elektron resurs] // Pedagogics jurnali. – 2024. – №2. – B. 42–44. – URL: <https://pedagogics.uz/ped/article/view/851> .
4. **Qodirova G.** National-cultural characteristics and linguocultural markers of agricultural terminology: The case of English and Uzbek // International Journal of Artificial Intelligence. — 2025. — vol. 05. — p. 1912–1923. — URL: <https://www.academicpublishers.org/journals/index.php/ijai/article/download/7274/8129/16018>
5. Subbotin A.I. Fundamentals of terminology. – Moscow: Nauka, 2005. – 240 p. – URL: <https://www.twirpx.com/file/1453456/> .
6. Usmonova D. Qishloq xo‘jaligi terminlarining leksik tasnifi [Elektron resurs] // Ilmiy xabarnoma. – 2023. – №2. – B. 45–52. – URL: <https://ilmiyxabarlar.kspi.uz/index.php/journal/article/view/1286>
7. Zhang C., Wu D. Bilingual terminology extraction [Elektron resurs]. – 2013. – 12 p. – URL: <https://arxiv.org/pdf/1302.4492> .
8. Дидигова Изабелла Борисовна. Терминологическая система теории текста в современном русском языке: дис. кандидат филологических наук: 10.02.01 - Русский язык. Магас. 2011. 192 с.
9. Xamidov M. Qishloq xo‘jaligi terminlarida sinonimiya hodisasi [Elektron resurs] // Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – Vol. 2, №6. – B. 50–52. – URL: <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/1710> .